O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktor o‘rinbosari
_____ I.I.Isomov
“ ” _____ 2026-yil

13.00.07 – “Ta’limda menejment”
ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kirish imtihoni

DASTURI

Toshkent 2026

Scanned with CamScanner

Annotatsiya

Mazkur dastur 13.00.07 – "Ta'limda menejment" ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilarning ixtisoslik bo'yicha nazariy bilimlari, metodologik tayyorgarligi, boshqaruv kompetensiyalari hamda mustaqil ilmiy-tadqiqot olib borish salohiyatini aniqlashga yo'naltirilgan.

Dasturda ta'lim menejmentining nazariy-metodologik asoslari, ta'lim tizimini boshqarishning zamonaviy tamoyillari, qonuniyatlari, funksiyalari, metodlari va mexanizmlari, ta'lim tashkilotlarini strategik va operatsion boshqarish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ta'lim sifatini boshqarish hamda monitoring va baholash masalalariga oid tavsiya etiladigan savollar va mavzu yo'nalishlari belgilangan. Mazkur dastur 13.00.07 – "Ta'limda menejment" ixtisosligi bo'yicha izlanuvchilarning nazariy bilimlari, ilmiy-metodologik tayyorgarligi, zamonaviy ta'lim boshqaruvi jarayonlarini tahlil qilish va takomillashtirishga oid amaliy ko'nikmalari hamda mustaqil ilmiy-tadqiqot olib borish kompetensiyalarini kompleks baholashga xizmat qiladi.

Tuzuvchi: p.f.d. (DSc), dotsent A.Djurayev

Taqrizchilar: i.f.d., professor F.Nazarova
i.f.d., professor R.Nurimbetov

Scanned with CamScanner

SO‘Z BOSHI

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son va 2026-yil 10-apreldagi “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-58-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-son qarori hamda mamlakatimizda ta’lim jarayonini rivojlantirish maqsadida belgilangan konseptual g‘oyalar «Ta’limda menejment» ixtisosligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar uchun ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

«Ta’limda menejment» ixtisosligi boshqaruv nazariyasining metodlarini ta’lim sohasi menejmenti masalalarini hal qilishga tatbiq etish, pedagogika fanining ta’lim sohasini boshqarishga doir tadqiqotlar metodologiyasi, ta’limda menejmentning rivojlanish tarixi, nazariyalari va g‘oyalari, qiyosiy va strategik menejment, uzluksiz ta’lim va uning alohida turlari faoliyatini tashkil qilish va boshqarish, ta’lim sohasi va tizimi obyektlarini boshqarish tamoyillari, metodlari, tashkiliy va texnologik mexanizmlarini rivojlantirish, ta’lim tizimi alohida turlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonlarini, shuningdek, boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, ta’lim tizimi va muassasalarini boshqarish jarayonlarini tahlil qilish, modellashtirish, optimallashtirish va takomillashtirish muammolarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qiladi.

Hozirgi davrda ta’limda menejment fani pedagogik va boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, ta’lim oluvchilar va ilmiy tadqiqotchilarda yangicha tafakkurni tarkib toptirish, ta’limda zamonaviy boshqaruvni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Mazkur dasturda 13.00.07 – «Ta’limda menejment» ixtisosligi bo‘yicha pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilarning «Ta’limda menejment» fani bo‘yicha bilimlarini aniqlash va baholash maqsadida o‘tkaziladigan imtihon uchun tavsiya etiladigan savollar, mavzu yo‘nalishlari, izlanuvchilar javoblarini baholashda e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo‘lgan jihatlar belgilab berilgan.

Scanned with CamScanner

Scanned with CamScanner

«Ta'limda menejment» ixtisosligi imtihon dasturini shakllantirishda ta'lim sohasidagi islohotlar, ta'lim menejmenti va uni amalga oshirayotgan mutaxassis kadrlarga qo'yiladigan zamonaviy talablar hisobga olingan.

«Ta'limda menejment» ixtisosligi imtihon dasturi o'z tarkibiga pedagogika va boshqa ta'lim yo'nalishlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni boshqarishga doir dolzarb muammolarni samarali hal etish uchun zarur bo'lgan bilimlarga oid savollarni qamrab olgan.

ASOSIY QISM

"Ta'limda menejment" ixtisosligi bo'yicha talab qilinadigan zaruriy bilimlar mazmuni

1. Ta'limda menejment

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» Qonuni asosida ta'limda menejment fani va uning jamiyatda tutgan o'rni haqida.

Ta'limda menejment.

Ta'limda menejmentning paydo bo'lishi va ravnaq topishi. Sharq mutafakkirlari (Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar) va G'arb pedagoglarining jamiyatda ta'limni boshqarishga oid qarashlari.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ta'lim muassasalari va ularni boshqarish haqida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yosh avlod tarbiyasiga kompleks yondashuv g'oyasi haqida.

2. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi va uni amalga oshirishga oid 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmonning ustuvor yo'nalishlari, ularda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishga oid masalalar.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida" Qonuni,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son, 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son va 2026-yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini

takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-58-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-son qarori mazmuni va ularning ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishdagi ahamiyati.

3. “Ta’limda menejment” mutaxassisligi va uning predmeti, maqsad, vazifalari

Ta’limda menejment ijtimoiy fan sifatida. Uning ta’lim va jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, rivojlanish bosqichlari va ilmiy-nazariy, amaliy istiqbolni belgilash vazifalari.

Ta’limda menejment fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari: boshqaruv, oliy ta’lim tizimi, uzluksiz ta’lim tizimi, oliy o‘quv yurtlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash, menejer, boshqaruv funksiyalari, tarbiya, ta’lim (o‘qitish, o‘qish), ma’lumot, bilim, strategik reja, ko‘nikma va malakalar, rivojlanish.

Ta’limda menejment fanining tuzilishi. Ta’limda menejment fanining falsafa, pedagogika, siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, tibbiyot va boshqa insonshunoslik fanlari bilan aloqasi.

Ta’limda menejmentni tashkil etishning bir butunligi, ta’limda boshqaruv jarayonlarini tadqiq qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlari.

Ta’limning alohida turlari (maktabgacha ta’lim; umumiy o‘rta ta’lim; maktabdan tashqari ta’lim; professional ta’lim; oliy ta’lim; oliy ta’limdan keyingi ta’lim; kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish)ning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim obyektlari (ta’lim muassasalari va jarayonlari)ni boshqarish va qarorlar qabul qilish nazariyasining tamoyillari, metodlari, tashkiliy me’yorlari va texnologik usullarini rivojlantirish va qo‘llash asosida boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim tizimidagi obyektlar va jarayonlarning tizimli aloqasi, faoliyat ko‘rsatishi hamda rivojlanishini nazariy va amaliy tadqiq qilish.

4. Ta’limda menejmentning tadqiqot yo‘nalishlari

Ta’lim menejmenti sohasidagi pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi (tadqiqotlarning g‘oyaviy asoslari; ta’lim menejmenti taraqqiyotini fan sifatida tadqiq qilish yondashuvlari, ularning mutanosibligi va qo‘llanish chegaralari; ta’limni boshqarish muammolarini pedagogik tadqiq qilishning mazmuni, tashkil etilishi va metodlari; ta’lim menejmenti predmet sohasining rivojlanishi; pedagogika

Scanned with CamScanner

fani va ta'lim tizimlarini boshqarish amaliyotining o'zaro dialektik bog'liqligi; ta'limni boshqarish sohasidagi prognostik tadqiqotlarni va pedagogik tadqiqotlar sifatini metodologik asoslash).

Pedagogik tizimlarni boshqarish metodologiyasi (ta'limni tashkil qilish va rivojlantirishda boshqarishning o'rni va roli; ta'lim menejmenti fanining obyekti, predmeti, tadqiqot metodlari).

Ta'lim tizimlarini boshqarishning nazariyasi va amaliyoti haqidagi pedagogika fanining rivojlanish tarixi (ta'limni boshqarish amaliyotining tarixiy rivojlanishi tahlili; ta'lim menejmentiga oid ilmiy-pedagogik g'oyalar, konsepsiyalar, nazariyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi; o'tmishning mashhur pedagoglarining ta'limni tashkil qilish va boshqarish haqidagi pedagogik merosini monografik o'rganish; ta'limni boshqarishga doir pedagogik leksika va atamalarni rivojlantirish).

Ta'limni boshqarish konsepsiyalari (ta'lim boshqaruvini rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy shartlari; ta'limni boshqarishning ijtimoiy samaralari; ta'lim sohasini boshqarish tizimlari va mexanizmlarini yaratish va rivojlantirish texnologiyalari; uzluksiz ta'lim tizimini boshqarish; kattalar ta'limini boshqarish; ta'limdagi innovatsion jarayonlarni boshqarish; ta'lim tizimlarini boshqarish; masofaviy va media-ta'limni boshqarish nazariyasi va amaliyoti).

Ta'lim tizimida boshqarish va qaror qabul qilishning nazariy asoslari, ta'limni boshqarishga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ta'limda boshqaruv tuzilmalarini loyihalashtirish.

Ta'limda menejment fanining ilmiy-tadqiqot metodlari. Nazariy tadqiqot metodlari: qiyosiy-tarixiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish va boshqalar. Amaliy tadqiqot metodlari: ilmiy kuzatish, suhbat, intervyu, so'rovnoma, test, reyting, statistik tahlil, hujjatlar tahlili, ilmiy tajriba, ilmiy tajriba sinovi (tabiiy, laboratoriya, amaliy va boshqalar). Tajriba-sinov ishlari va ularni kuzatish metodikasi.

5. Ta'limni tashkil etish va boshqarishda amaliy menejment

Ta'limni tashkil etish va boshqarishda nazariyaning boshqarish amaliyoti bilan aloqasi. Ta'limda innovatsion boshqaruv. Ta'lim muassasalarida tajriba-sinov boshqarish faoliyati, ta'lim menejeri kasbiy faoliyatini, shu jumladan, uning mohiyatini, tuzilishini, funksiyalarini tizimli o'zgartirish, ta'limni boshqarish sohasidagi jamoa tashkilotlari faoliyati, ta'limda ijtimoiy sheriklikni boshqarish, korporativ boshqaruv.

Qiyosiy menejment. O'zbekistonda, dunyoning turli mamlakat va mintaqalarida ta'limni boshqarish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning holati, qonuniyatlari va tendensiyalari, ta'limni boshqarish an'analarini taqqoslash, ta'limni

Scanned with CamScanner

Scanned with CamScanner

boshqarish sohasidagi ilg‘or tajribalarni aniqlash; ta’limni boshqarish sohasidagi xorijiy tajribalardan foydalanish orqali milliy ta’lim tizimlarini o‘zaro boyitishning imkoniyatlari, asoslanishi va yo‘llari.

Ta’limni boshqarishning pedagogik jihatlarini fanlararo tadqiq qilinishi (turli fan sohalarining bilimlari integratsiyasi asosida ta’limni boshqarishning rivojlanish yo‘nalishlarini tadqiq qilish; ijtimoiy-siyosiy faoliyat nuqtai nazaridan ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini tadqiq qilish).

Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan boshqarishning tamoyillari, metodlari, tashkiliy me’yorlari va texnologik usullari. Ta’limda menejmentning modellari hamda ta’lim tizimida boshqaruv masalalarini hal qilish va qaror qabul qilish samaradorligini baholash. Ta’lim tizimi rahbar kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish, ta’lim menejerlarining kasbiy kompetentligini oshirish.

6. Didaktika – ta’lim nazariyasi ta’lim menejmentining nazariy asosi sifatida

Ta’lim paradigmalari. Ta’lim va o‘qitish nazariyasi (didaktika) ta’lim menejmentining nazariy asosi sifatida. Uning jamiyatda tutgan o‘rni.

Didaktikaning vazifalari va ahamiyati, asosiy tushunchalari. Hozirgi davr didaktika rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari (konsepsiyalari).

Uzluksiz ta’lim konsepsiyasi. O‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi konsepsiyasi. Rivojlanuvchi va tarbiyalovchi ta’lim konsepsiyasi. Ta’lim konsepsiyasini hozirgi davr pedagogikasida amalga oshirishga turlicha yondashuvlar. O‘quv jarayonini texnologiyalashtirish konsepsiyasi. Ta’lim konsepsiyasining ijobiy va salbiy tomonlari.

Hozirgi davr pedagogikasida ta’lim paradigmalari: an’anaviy-konservativ, ilmiy, insonparvarlashgan (mantiqiy), ratsionalistik (bixevioristik), texnokratik, ezoterik.

7. Ta’limni tashkil etish turlari va shakllari

Ta’limni tashkil etishning asosiy shakllari. Ta’lim turlari: illyustrativ (an’anaviy); problemali (muammoli); programmalashtirilgan ta’lim.

Ta’limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari. Ta’lim maqsadi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quv ishlarining turli shakllaridan foydalanish. Ta’limni tashkil etishning an’anaviy shakli. Dars tiplari va tuzilishi. Hozirgi zamonda dars va darslarni modernizatsiyalash yo‘llari. Darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatini tashkil qilishning yalpi, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini uyg‘unlashtirish. Ta’limni tashkil etishning noan’anaviy shakllari: o‘quv dialogi, munozara, didaktik (ishbop, rolli) o‘yinlar, trening, press-konferensiya,

Scanned with CamScanner

o‘tkir zehnlilar klubi, musobaqa darslari, auksion, mo‘jizalar maydoni, tergovni bilimdonlar olib boradi, bayt-baraka va boshqalar.

Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari, konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar, konferensiyalar.

Ta’limni tashkil etish shakllarini rivojlantirish istiqboli.

O‘quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakllari: fan to‘garaklari, ilmiy jamiyatlar, olimpiadalar va boshqalar.

O‘qituvchi faoliyatida o‘quv ishlari turli shakllarining o‘zaro aloqadorligi.

8. Ta’limni tashkil etish va boshqarishda boshqaruv maqsadi va funksiyalari

Boshqaruv maqsadi, maqsad turlari. Maqsadlar kaskadi (pog‘onalari). Boshqarish funksiyalari. Boshqaruv usullari. Boshqaruv usullari to‘g‘risida tushuncha. Boshqarishning tashkiliy-ma’muriy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik usullari.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va undagi islohotlar. Ta’lim tizimini isloh qilish bosqichlari. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va uni boshqarish. Menejer. Menejer va rahbarlik uslubi. Boshqaruv pog‘onasi. Boshqaruv uslubi. Rahbarning ish uslubi. Rahbar fazilatlari. Rahbar madaniyati.

Boshqaruv qarorlarining tasnifi. Boshqaruv qarorlari mohiyati va ularga qo‘yiladigan talablar. Boshqaruv qarorlari elementlari. Umumiy qaror, strategik qaror, taktik qaror. Maxsus qaror va boshqalar. Qaror qabul qilish. Qarorlarni ishlab chiqish va uni qabul qilish. Qarorlar ijrosini uyushtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish. Vaziyatni tahlil qilish. Qarorlarni bajarish. Qarorlarning bajarilishiga rahbarlik qilish.

9. Ta’limni tashkil etish va boshqarishda menejment funksiyasi

Menejment funksiyasi: rejalashtirish, strategik rejalashtirish. Strategiya va strategik boshqaruv tushunchasi. Strategik rejalashtirish jarayoni. Maqsadlarni tanlash. Strategik rejaning tuzilishi. Kuchli va zaif tomonlar, tashqi muhitni tahlil etish va baholash. Marketing, bozor va bozorni o‘rganish. Strategik alternativ (muqobil)larni o‘rganish. Strategiyani tanlash. Nazorat haqida tushuncha. Nazoratning mazmuni va mohiyati. Asosiy nazorat turlarini amalga oshirish. Oldindan nazorat, joriy nazorat, yakuniy nazorat. Oldindan nazoratni olib borishda inson, moddiy va moliyaviy resurslar. Nazorat jarayoni: standartlarni belgilash, erishilgan natijalarni standart bilan o‘lchash. Nazoratda xatti-harakatlar bo‘yicha tavsiyalar.

Hokimiyat va ta’sir ko‘rsatish. Shaxsiy ta’sir va hokimiyatning turlari. Ta’lim muassasasi rahbari – lideri. Rahbarlikni balanslash. Majburlashga asoslangan

Scanned with CamScanner

hokimiyat (qo‘rqitish, kuchli va kuchsiz tomonlari). Haqiqiy hokimiyat urf-odatlar, an’analar (traditsiyalar) orqali ta’sir etish. O‘rnak bo‘lish orqali ta’sir. Xarizma yordamida ta’sir. Ekspert hokimiyat. Ishtirok etish va ishontirish orqali ta’sir. Rahbarning kuchli va kuchsiz tomonlari.

10. Ta’limni tashkil etish va boshqarishda rahbarning boshqaruv kompetentligi

Ta’limni tashkil etish va boshqarishda rahbarning boshqaruv kompetentligining asosiy komponentlari. Rahbarning boshqaruv sohasi bo‘yicha ilmiy-nazariy bilimiga egaligi. Rahbarning ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatini me’yoriy talablar asosida tashkil eta olishi. Rahbarning boshqalar fikrini hurmat qilishi va uni namoyish eta olishi. Rahbarning boshqalar fikriga ta’sir etuvchi (ishontira olish, to‘g‘rilash, fikrni qarama-qarshi qo‘yish) muloqot maneralarini tanlay olishi. Rahbarning o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan (qo‘llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot maneralarini tanlay olishi. Ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishda davlat organlari, jamoat tashkilotlari va tinglovchilar bilan me’yoriy-huquqiy munosabatlarga kirisha olishi. Ta’lim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi o‘qituvchilarning turli pedagogik hamjamiyatlarida ishtirok etishi.

11. Ta’limni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalari

Muomala madaniyati. Munosabat, qayta bog‘lanish va uning turlari. Qayta bog‘lanishdan maqsad va xavf omillari. Qayta bog‘lanish bo‘yicha tavsiyalar. Samarali muloqotga to‘siqlar. Boshqaruv samaradorligi. Boshqaruv samaradorligi tushunchasi va uning mezonlari. Boshqaruv resurslari va samaralari. Boshqaruv xarajatlari. Boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichlari.

Nizolarni boshqarish. Nizo, ularning kelib chiqish sabablari va turlari. Ichki nizo. Shaxslararo nizo, shaxs va guruh o‘rtasidagi nizo.

Guruhlararo nizo. Ochiq, yopiq, obyektiv, subyektiv, konstruktiv va destruktiv nizolar. Nizolarni boshqarish va ularni bartaraf qilish yo‘llari. Stress va uni boshqarish.

12. Ta’lim sohasini boshqarishning nazariyasi va amaliyoti haqidagi pedagogika fanining rivojlanish tarixi

Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiylarning umumpedagogik hamda ta’limni tashkil etish va boshqarishga oid g‘oyalari.

XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda Amir Temurning markazlashgan mahalliy davlatining paydo bo‘lishi va uning ilm-ma’rifatning taraqqiy etishidagi roli. Amir

Scanned with CamScanner

Temur davrida maktab va madrasalarda ta'lim-tarbiya xususiyatlari. Alisher Navoiyning maktab va madrasalarni tashkil etish va rivojlantirishdagi faoliyati.

XVII-XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon va boshqa xonliklarda qizlar maktablari. Jahon otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi. Qizlar maktablarining o'ziga xosligi va boshqaruv uslubi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish. Jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining paydo bo'lishi. Munavvar Qori, Avloniy, Behbudiylarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida ta'lim-tarbiyani tashkil etish va boshqarish haqida.

1917–1990-yillarda O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.

13. Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar

Zamonaviy davrda jahon va milliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim sohasidagi zamonaviy trendlar, oliy ta'lim sohasidagi tendensiyalar hamda strategik yo'nalishlar. Ta'lim sohasini boshqarishdagi paradigmalar. Respublika oliy ta'lim muassasalarining akademik va moliyaviy mustaqilligini oshirish sohasidagi islohotlar. Markazlashgan ta'lim tizimidan nomarkazlashgan ta'lim tizimiga o'tish jarayonlari. Tadbirkorlik universitetlari.

Ta'limning alohida turlari (maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; maktabdan tashqari ta'lim; o'rta maxsus, professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish)da amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni va maqsadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarga yangicha yondashuvning ilgari surilishi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish masalalari.

14. Hozirgi davrda jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta'limni boshqarish

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi va maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish amaliyoti.

Jahon mamlakatlaridagi zamonaviy ijtimoiy bilimlar tizimida ta'limda menejment fani va uning asosiy yo'nalishlari.

AQSH, Yaponiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ta'limida menejmentni tashkil etishning mazmuni va taraqqiyoti.

“Ta’limda menejment” ixtisosligidan imtihon savollari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni mazmuni (2026-yil 10-apreldagi PF-58-son Farmon bilan kiritilgan o‘zgartirishlar bilan).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son hamda 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmonlari mazmuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yosh avlod tarbiyasiga kompleks yondashuv g‘oyasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta’lim sohasini isloh qilishga doir qarorlari mazmuni va ularning ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishdagi ahamiyati.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-200-son Qarori hamda 2026-yil 10-apreldagi “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-58-son Farmoni ahamiyati.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son Qarori ahamiyati.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son Qarori mazmuni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 415-son Qarori mazmuni.

9. Boshqaruv usullari to‘g‘risida tushuncha. Boshqarishning tashkiliy-ma’muriy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik usullari.

10. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va uni boshqarish.

11. Boshqaruv qarorlarining tasnifi. Boshqaruv qarorlari mohiyati va ularga qo‘yiladigan talablar.

12. Boshqaruv qarorlarining turlari.

13. Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish.

14. Boshqaruvda nazorat tushunchasi, nazoratning mazmuni, mohiyati va turlari.

Scanned with CamScanner

15. Strategiya va strategik boshqaruv tushunchasi.

16. Ta'limni tashkil etish va boshqarishda rahbarning boshqaruv kompetentligi tushunchasi.

17. Boshqaruv samaradorligi tushunchasi va boshqaruv samaradorligi mezonlari.

18. Nizo, ularning kelib chiqish sabablari va turlari. Nizolarni boshqarish.

19. Ta'lim menejmenti tushunchasi.

20. Ta'limda menejmentning paydo bo'lishi va ravnaq topishi.

21. Amir Temur davrida maktab va madrasalarda ta'lim-tarbiya xususiyatlari.

22. Alisher Navoiyning maktab va madrasalarni tashkil etish va rivojlantirishdagi faoliyati.

23. Qo'qon va boshqa xonliklarda qizlar maktablari. Qizlar maktablarining o'ziga xosligi va boshqaruv uslubi.

24. Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida ta'lim-tarbiyani tashkil etish va boshqarish haqida.

25. Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagoglarining jamiyatda ta'limni boshqarishga oid qarashlari.

26. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi va maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish amaliyoti.

27. Ta'limda menejmentning mohiyati, predmeti, maqsad va vazifalari.

28. Ta'lim menejmentining ilmiy-tadqiqot metodlari.

29. Ta'limda menejment fanining falsafa, pedagogika, siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, meditsina va boshqa insonshunoslik fanlari bilan aloqadorligi.

30. Tizim, pedagogik tizim va didaktik tizim tushunchalari.

31. Pedagogik tizim va uning tarkibiy qismlari.

32. Ta'limda menejmentning modellari.

33. Ta'lim paradigmalari. Ta'lim va o'qitish nazariyasi (didaktika) ta'lim menejmentining nazariy asosi sifatida.

34. Hozirgi davr didaktika rivojlanishining asosiy yo'nalishlari (konsepsiyalari).

35. Ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari.

36. Ta'lim muassasasini boshqarish tamoyillari.

37. Boshqaruvda motivatsiya va rag'batning o'rni.

38. Boshqaruvga doir zamonaviy yondashuvlar.

39. Kvalimetriya metodi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish.

40. Ta'lim muassasasi pedagogik tizim sifatida.

41. Pedagogik tizimning harakatlantiruvchi omillari.

42. Pedagogik tizim tuzilishining tarkibiy qismlari.

43. Boshqaruv madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari.

44. Ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining vazifalari, huquq va majburiyatlari.

Scanned with CamScanner

45. Ta'lim muassasasi ichki boshqaruvida pedagogik tahlil.

46. Maqsad qo'yish va rejalashtirish ta'lim muassasasi menejmentining vazifasi sifatida.

47. Ta'lim muassasasi menejmentida tashkil etish vazifasi.

48. Ta'lim muassasasining ichki muhiti. SWOT-tahlil.

49. Ta'lim muassasasi ichki nazorati.

50. Boshqaruv jarayonida ta'lim muassasasi va jamoatchilikning hamkorligi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" Qonuni. (O'RQ-637-son, amaldagi tahrirda).
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrda qabul qilingan "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-sonli Farmoni (2026-yil 10-apreldagi PF-58-son Farmon bilan kiritilgan o'zgartirishlar bilan).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi «2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-165-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-200-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-58-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini

Scanned with CamScanner

Scanned with CamScanner

oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 415-son Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-oktabrdagi “Ayrim davlat oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-358-son Qarori.

II. Monografiya, o‘quv qo‘llanmalar

1. Николаев В.К., Скворцов А.А. Модель предпринимательского университета в контексте регионального развития: опыт Московского политеха. Terra Economicus, 2023, 21. – С. 108–121.

2. Нуримбетов Р.И. Университет 3.0 модели ва таълим сифатини таъминлаш масалалари: ўқув қўлланма / Р.И. Нуримбетов. – Тошкент: “SAVRAV PRINT” нашриёти, 2024. – 194 бет.

3. Хангельдиева И.Г. Образовательные экосистемы – тренд развития современного российского образования в ближайшем будущем // Вестник Московского университета. Серия 20: Педагогическое образование. – 2022. – № 1. – С. 68-88.

4. Штыхно Д.А., Константинова Л.В., Гагиев Н.Н., Смирнова Е.А., Никонова О.Д. Трансформация моделей университетов: анализ стратегий развития вузов мира // Высшее образование в России. – 2022. – № 6. – С. 27-47.

5. Головко Н.В., Зиневич О.В., Рузанкина Е.А. Университет третьего поколения: Б. Кларк и Й. Уисема // Высшее образование в России. – 2016. – № 8-9. – С. 40-47.

6. Ефимов В.С., Лаптева А.В., Румянцев М.В. Наука и образование региона в экосистемной перспективе (на примере Красноярского края) // Университетское управление: практика и анализ. – 2019. – № 3. – С. 40-55.

7. Изотова А.Г., Гаврилюк Е.С. Экосистемный подход как новый тренд развития высшего образования // Вопросы инновационной экономики. – 2022. – № 2. – С. 1211-1226. – doi: 10.18334/vinec.12.2.114869.

8. Каменских М.А. Исследование концепции предпринимательского университета и институциональных факторов его деятельности // Вестник УрФУ. Серия: Экономика и управление. – 2016. – № 3. – С. 420-433.

9. Кларк Б.Р. Создание предпринимательских университетов: организационные направления трансформации. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2019. – 240 с.

III. Elektron axborot resurslari

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi : rasmiy veb-sayt. – URL: https://lex.uz.

2. ZiyoNET ta’lim axborot tarmog‘i: elektron resurs. – URL: https://ziyonet.uz.

3. Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti elektron kutubxonasi : elektron resurs. – URL: https://lib.bimm.uz.
4. UNESCO : rasmiy veb-sayt. – URL: https://www.unesco.org.
5. OECD : rasmiy veb-sayt. – URL: https://www.oecd.org.

BAHOLASH MEZONLARI

13.00.07 – "Ta'limda menejment" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonida talabgorlar bilimini baholash mezonlari

Nazorat shakli va maksimal baholar	Imtihon
Maksimal ball	100 ball
Shakli	Yozma, og'zaki
Muddati	Belgilangan sanada

Talabgorlarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Ball	Baho	Baholash mezonlari
86–100	A'lo	Talabgor pedagogika nazariyasi va pedagogik ta'limotlar tarixi bo'yicha chuqur bilimga ega, savollarni to'liq va ilmiy asosda yoritadi. Mustaqil fikr yuritadi, pedagogik nazariyalarni tahlil va qiyoslay oladi, ilmiy xulosalar chiqaradi hamda nazariy bilimlarini ta'lim amaliyoti bilan bog'lay oladi.
71–85	Yaxshi	Talabgor fan bo'yicha yetarli nazariy bilimga ega, savollarning asosiy mazmunini to'g'ri tushuntiradi. Pedagogik tushuncha va qonuniyatlarni izohlay oladi, mustaqil fikr bildiradi, biroq ayrim masalalarni ilmiy tahlil qilishda kichik kamchiliklarga yo'l qo'yadi.
56–70	Qoniqarli	Talabgor fan bo'yicha asosiy tushunchalarni biladi, savollarga qisman javob beradi. Pedagogik nazariyalar va ilmiy yondashuvlar haqida umumiy tasavvurga ega, biroq javoblarida ilmiy asoslash, tahlil qilish va xulosa chiqarishda kamchiliklar mavjud.
0–55	Qoniqarsiz	Talabgor fan bo'yicha zarur nazariy bilimlarni yetarli darajada egallamagan, savollarning mazmunini to'liq ochib bera olmaydi. Pedagogik tushunchalarni izohlash, ilmiy fikr yuritish va asosli xulosa chiqarishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi.

Tuzuvchi: **p.f.d. (DSc), dotsent A.S.Djurayev**

Ilg'or tajriba va xalqaro hamkorlik ilmiy-axborot tadqiqotlari bo'limi boshlig'i: **p.f.f.d., (PhD) dotsent D.I.Normatova**

Scanned with CamScanner